

## IJTIMOIY QATLAMGA XOS BIRLIKLARNING ADABIY TILGA TA'SIRI

*Aliqulova Maftuna Akmal qizi,*

*Samarqand davlat pedagogika institutining*

*o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada o'zbek tili leksikasida qo'llanish doirasi chegaralangan so'zlardan biri – sotsiolektlar (argo, jargon, sleng) haqida so'z boradi. Ularning jamiyatdagi o'rni, kishilar nutqida qo'llanishi, o'zaro farqlari, kelajakka ta'siri hamda bugungi kundagi roli misollar orqali o'rganiladi.

*Kalit so'zlar:* sotsiolekt, argo, jargon, sleng, nofaol so'zlar.

## ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНО ОБУСЛОВЛЕННЫХ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ НА ЛИТЕРАТУРНЫЙ ЯЗЫК

*Аликулова Мафтуна Акмал кизи,*

*студентка 1 курса направления узбекского языка и литературы Самаркандского  
государственного педагогического института*

*Аннотация.* В данной статье рассматриваются социолекты (арго, жаргон, сленг) как одна из групп лексических единиц узбекского языка с ограниченной сферой употребления. Анализируется их роль в обществе, особенности использования в речи представителей различных социальных слоёв, а также их различия между собой на основе конкретных примеров. Кроме того, освещается влияние данных языковых единиц на развитие литературного языка, их вклад в обогащение лексики, а также их значение в современном языковом пространстве.

*Ключевые слова:* социолект, аргo, жаргон, сленг, пассивная лексика, культура речи.

## THE INFLUENCE OF SOCIALLY MARKED LANGUAGE UNITS ON THE LITERARY LANGUAGE

*Aliqulova Maftuna Akmal qizi*

*First-year student majoring in Uzbek Language and Literature  
at Samarkand State Pedagogical Institute*

**Abstract.** *This article examines sociolects (argot, jargon, and slang) as a group of lexical units with limited usage in the Uzbek language. It analyzes their role in society, the features of their use in the speech of representatives of different social groups, and the differences between them based on specific examples. In addition, the study highlights the impact of these linguistic units on the development of the literary language, their contribution to lexical enrichment, and their significance in the contemporary linguistic environment.*

**Keywords:** *sociolect, argot, jargon, slang, passive vocabulary, speech culture.*

**Kirish.** Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi kishilik jamiyati bilan mustahkam bog'liq. Til jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlandi. Ijtimoiy o'zgarishlar natijasida tilning imkoniyatlari ham kengayib boradi.

Har bir tilning umumiy ijtimoiy xususiyatlariga ko'ra birlashtiradigan, xalqning ma'lum qismi uchun asosiy muloqot vositasi hisoblangan so'zlari mavjud. Mazkur so'zlar kundalik hayotda ko'p ishlatilgani bois ulardan voz kechib bo'lmaydi. Bu kabi nafaol so'zlar sotsiolektlar hisoblanadi.<sup>1</sup>

Sotsiolekt deganda, asosan, argo, jargon va sleng tushuniladi.<sup>2</sup> Ushbu atamalar ijtimoiy lingvistika fanining muhim tadqiqot obyektiga aylanib, turli guruhlarga xos nutq xususiyatlarini o'rganishda asosiy tayanch sifatida xizmat qilmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi – o'zbek tili misolida argo, jargon va slengning mohiyatini, ularning bir-biridan farqlarini va jamiyat hayotidagi o'rnini ilmiy asosda tahlil etishdir.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Бондалетов В.Д. Социальная лингвистика. – Москва: Просвещение, 1987. – 160 б.

<sup>2</sup> Швейцер А.Д. Современная социолингвистика. – Москва: Наука, 1977. – 176 б.

**Natijalar.** Argo fransuz tilidan olingan bo‘lib, “argot” – qulflangan, yopib qo‘yilgan degan ma’noni bildiradi.<sup>2</sup> U muayyan ijtimoiy guruh, kasb yoki qatlam vakillari tomonidan o‘zaro muloqotni yashirish yoki farqlash maqsadida qo‘llaniladigan, umumxalq tilidan leksikasi bilan ajralib turadigan maxsus nutq shaklidir. Uning etimologik kelib chiqishi “corporation des jeux” – qora niyatli kishilar deb izohlanadi.

Argolar umumxalq tilidan leksik tarkibi bilan keskin ajralib turadi. Uning asosiy vazifasi muloqot mazmunini guruhdan tashqaridagi shaxslar tushunmasligini ta'minlashdir. Masalan:

**1) O‘g‘rilar nutqida:** “kalamush” – o‘z yaqinlarnikiga tushadigan o‘g‘ri; “urkagan” – tajribali o‘g‘ri;

**2) Mahbuslar nutqida:** “ment” – militsioner; “pushka” – pistolet; “krakodil” – qaychi; “maymun” – oyna.

Argo jargondan ma'lum bir darajada maxfiyligi bilan ajraladi. Ammo O.S. Axmanovanning lug‘atida argo va jargonlar bir xil tushuncha ekanligi ta’kidlangan, faqatgina jargonga nisbatan “kamsitish ohangidan holi” deb beriladi.

**Jargonlar** ham qo‘llanish doirasi chegaralangan leksika tarkibiga kiradi. Kasb-hunar, jamiyatdagi o‘rni, qiziqishi, yoshiga ko‘ra alohida sotsial guruhini tashkil etgan va ko‘p hollarda barchaga ham tushunarli bo‘lmaydigan nutqiy birliklar jargonlar deyiladi.<sup>3</sup>

Jargon so‘zi qadimda fors tilidan olingan bo‘lib, "zirkon" so‘zining transformatsiyasi sifatida talqin etiladi. Mahalliy aholi bilan mojaroga kirgan ko‘chmanchi savdogarlar va firibgarlar tushunmasliklari uchun maxfiy tilda so‘zlasha boshlagan. Keyinchalik guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro qo‘llaniladigan maxsus tilga nisbatan "jargon" atamasi ishlatila boshlagan.

### **Jargon turlari va misollari:**

**1. Talabalar jargoni:** yopmoq (sessiyani tugatmoq), воздух (stipendiya), quloq (chaqimchi), chizmoq/uzmoq (qochmoq), qotmoq (hayajonlanmoq);

<sup>1</sup> Мусаев К. О‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1984. – 234 б.

<sup>2</sup> Ахмадова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Советская энциклопедия, 1966. – 608 б.

<sup>3</sup> Скворцов Л.И. Об оценках языка молодежи (жаргон и языковая политика). // Вопросы культуры речи. – 1964. – №5. – Б. 45–67.

**2. Yoshlar jargoni:** g'isht (xunuk), sindirmoq/yirtmoq (lol qoldirmoq), крутой (ketvorgan), uxlatmoq (aldamoq), daxshat (juda zo'r), yomon (juda);

**3. Harbiy xizmatchilar jargoni:** dux (yangi kelgan askar), salyaga (bir-ikki oy xizmat qilgan askar), fazan (xizmatning yarmini o'tagan askar), ded (xizmatdan qaytishi yaqinlashgan askar), diskoteka (oshxona naryadi).

Jargonlar tarkibi boshqa tildan olingan o'zlashma birliklar bilan boyib boradi. Bu tarkib tez-tez o'zgarib turadi.

**Sleng** muayyan ijtimoiy guruhga xos bo'lib, emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega so'z va iboralardir.<sup>1</sup> Sleng termini ilk bor yozma ravishda XVIII asrda Angliyada qayd qilingan va o'sha davrda "haqorat" ma'nosini anglatgan. 1850-yildan esa "noqonuniy" oddiy leksikaning ifodasi sifatida keng qo'llanila boshladi. **O'zbek tilidagi sleng namunalari:**

*yedirdi* – bopladi; *gazini berdi* – adabini berdi; *gazini bos* – harakatdan to'xtama; *devonasidan* – zo'ridan; *xit qilib yubordi* – joniga tegdi; *dumaloqcha* – aylana video (telegram); *ko'karmaydi* – rivojlanmaydi; *terpila* – sotqin; *bardak* – tartibsiz; *seryoz* – jiddiymi va boshqalar.

Slengni "og'zaki nutq", "so'zlashuv" tushunchalari bilan tenglashtiriladi.<sup>2</sup> Yoshlar slenglar orqali so'z boyligini oshiradi. Davr o'zgargani sayin ular nutqida yangi-yangi almashinuvlar sodir bo'lib boraveradi.

### **Muhokama.**

Tahlil natijalariga ko'ra, argo, jargon va sleng – uchala tushuncha ham sotsiolektlar tarkibiga kiradi, ammo ularning har biri o'ziga xos belgilarga ega. Argo maxfiy va yopiq guruh nutqiga xos bo'lib, eng kuchli konspirativ xususiyatga ega. Jargon esa muayyan kasb, yoshdosh yoki manfaatdosh guruhga xos bo'lib, maxfiylik darajasi argonikidan past, lekin slengnikidan yuqori. Sleng esa emotsional ifodaga boy, keng auditoriyaga tushunarli, tezkor yangilanadigan birliklardir.

Bugun slengni jamiyatning barcha sohalarida – ommaviy axborot vositalari, filmlar, zamonaviy adabiyotlarda ham uchratish mumkin.<sup>1</sup> Bu esa sotsiolektlarning zamonaviy o'zbek tili leksikasiga faol ta'sir o'tkazayotganini ko'rsatadi.

<sup>1</sup> Partridge E. Slang Today and Yesterday. – London: Routledge, 1933. – 476 б.

<sup>2</sup> Хомский Н. Язык и мышление. – Москва: Изд-во МГУ, 1972. – 121 б.

Sotsiolektlar orqali soʻz boyligimizni oshiramiz va yangi sun'iy til yarata olamiz. Ularning tarkibi boshqa tillardan olingan oʻzlashma soʻzlar orqali boyiydi. Ammo uzluksiz ravishda bu kabi nafaol leksikadan foydalanish milliy tilni siqib chiqarishi mumkin. Shu bilan birga, ulardan foydalanishni inkor etib ham boʻlmaydi.

Yoshlar sotsiolektlardan oʻz tilining darajasini tushirmagan holda va maqsadli ravishda foydalanganlari maʼqul. Tilshunoslar esa bu hodisani taqiqlamasdan, balki ilmiy jihatdan oʻrganib, normalashtirish yoʻlini izlashlari lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Ahmanova O.S. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Советская энциклопедия, 1966. – 608 б.
2. Бондалетов В.Д. Социальная лингвистика. – Москва: Просвещение, 1987. – 160 б.
3. Hojiyev A. Oʻzbek tilida soʻz yasalishi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1989 – 180 b.
4. Partridge E. Slang Today and Yesterday. – London: Routledge, 1933. – 476 б.
5. Скворцов Л.И. Об оценках языка молодежи (жаргон и языковая политика) // Вопросы культуры речи. – 1964. – №5. – Б. 45–67.
6. Швейцер А.Д. Современная социолингвистика. – Москва: Наука, 1977. – 176 б.
7. Хомский Н. Язык и мышление. – Москва: Изд-во МГУ, 1972. – 121 б.

---

<sup>1</sup> Hojiyev A. Oʻzbek tilida soʻz yasalishi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1989. – 180 b